Majidova Zarina Shoxruz qizi.
Samarqand davlat pedagogika instituti
“Amaliy matematika” yo’nalishi 1-bosqich talabasi

RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR TA’LIM TIZIMIGA QANDAY TA’SIR QILMOQDA

Annotatsiya

Mazkur maqolada raqamli texnologiyalarning ta’lim tizimiga ta’siri yoritilgan.Unda zamonaviy axborot texnologiyalari yordamida ta’lim jarayonlarining samaradorligi oshishi, masofaviy ta’lim imkoniyatlarining kengayishi hamda elektron resurslarning afzalliklari tahlil qilingan. Shuningdek, raqamli texnologiyalardan foydalanish jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo’lgan ayrim muammolar ham ko’rib chiqiladi. Maqola ta’lim jarayonida texnologiyalardan oqilona foydalanish muhimligini asoslab beradi.

Kalit so’zlar

Raqamli texnologiyalar, axborot-kommunukatsiya texnologiyalari, ta’lim tizimi, masofaviy ta’lim, elektron darsliklar, onlayn ta’lim platformalari,multimedia vositalari, interaktiv ta’lim, internet resurslari, kiberxavfsizlik, innovatsion ta’lim.

Kirish

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar shiddat bilan rivojlanib boryapti va har bir sohada zamon bilan hamqadam odimlashni taqozo etmoqda. Axborot olish va foydalanish tezligi juda yiriklashgan hozirgi davrda ta’lim tizimida raqamli texnologiyalardan foydalanish ta’lim sifatini oshirish va ijtimoiy faol yoshlarni tarbiyalashda katta axamiyatga ega. Ayniqsa, ta’lim tiziminda raqamli texnologiyalarning qo’llanilishi bilim olish jarayonini yangi bosqichga olib chiqmoqda. Zamonaviy texnologiyalar yordamida o’quv jarayoni yanada qulay, tezkor va samarali tashkil etilmoqda.Raqamli texnologiyalar ta’lim sifatini oshirish, o’quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish hamda keng axborot manbalaridan foydalanish imkoyatini yaratadi. Shu bilan birga, ular ta’lim jarayoniga yangi usul va yondashuvlarni olib kirib, o’qituvchi va o’quvchi o’rtasidagi munosabatlarni mustahkamlaydi.

Asosiy qism

Raqamli texnologiya o’zi nima degan savolga quyidagicha javob beramiz:bu-xo’jalik yuritishning bir zamonaviy shakli bo’lib, unda ishlab chiqarish va boshq arishning asosiy faktori sifatida raqamli ko’rinishdagi katta ma’lumotlar majmui va ularni qayta ishlash jarayonida xizmat qiladi. Olingan natijalarni amaliyotda qo’llash va an’anaviy xo’jalik yuritish shakillariga nisbatan ancha katta samaradorlikka erishishga imkon beradi. Misol sifatida turli xildagi avtomatik ishlab chiqarish jarayonlarini, 3D-texnologiyasini,masofaviy meditsena xizmatlari ko’rsatishni, aqlli texnologiya yordamida bajariladigan turli xil jarayonlarni keltirishimiz mumkin.Biz bu maqolada raqamli texnologiyalarning ta’lim to’g’risidagi o’rniga to’xtalib o’tamiz. Raqamli texnologiyalar orqali ta’lim sohasida o’zgarishlar soni juda ko’p desak mubolag’a bo’lmaydi.Raqamli texnologiyalar orqali ta’lim olish va berish jarayonlari osonlashmoqda. Internet tarmoqlari va zamonaviy qurilmalar yordamida o’quvchilar va talabalar istalgan joydan turib bilim olish imkoniyatiga ega bo’lishmoqda. Masofaviy ta’lim platformalari, jumladan onlayn darslar, videokonferensiyalar va vertual mashg’ulotlar ta’limning yangi shaklini yaratdi. Faqat masofaviy ta’limda emas balki talaba va o’quvchilarning kunlik hayotida ham o’zgarishlar soni ko’p. Misol uchun, ta’lim tizimi vositalari rolini multimediyalar, kompyuter, noutbuk, internetga ulangan televizorlar, telefon liniyalari, smart doskalar, proyektorlar orqali dars jarayonlarining qulay tarzda o’tilayotganligini ko’rishimiz mumkin. Bunday usul o‘quvchilarning mavzuni tezroq tushunishiga va mustaqil o‘rganish ko‘nikmalarini shakllantirishga yordam beradi. Interaktiv testlar va topshiriqlar esa bilimlarni mustahkamlashda muhim rol o‘ynaydi.Raqamli texnologiyalar o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi hamkorlikni ham

rivojlantirmoqda. Zamonaviy ta’lim platformalari orqali o‘qituvchilar o‘quvchilarga topshiriqlar berish, ularning bilimini nazorat qilish hamda natijalarni tezkor baholash imkoniyatiga ega bo‘lishmoqda. O‘quvchilar esa mustaqil ravishda qo‘shimcha ma’lumotlar izlash, turli elektron kutubxonalardan foydalanish orqali bilim doirasini kengaytirishi mumkin.Biroq raqamli texnologiyalarning ayrim salbiy jihatlari ham mavjud. Internetdan noto‘g‘ri foydalanish, yolg‘on yoki ishonchsiz axborotlarning tarqalishi, shuningdek, gadjetlardan ortiqcha foydalanish o‘quvchilarning sog‘lig‘i va diqqatini pasaytirishi mumkin. Shu sababli ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalardan oqilona va maqsadga muvofiq foydalanish muhim hisoblanadi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, raqamli texnologiyalar ta’lim tizimining ajralmas qismiga aylanib, bilim olish jarayonini yanada samarali va qulay shaklga keltirmoqda. Ular ta’lim sifatini oshirish, o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish hamda zamonaviy bilim va ko‘nikmalarni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalardan foydalanishda yuzaga keladigan muammolarni hisobga olib, ulardan oqilona va maqsadli foydalanish zarur. Kelajakda raqamli texnologiyalar ta’lim tizimini yanada rivojlantirib, innovatsion yondashuvlar orqali ta’lim samaradorligini oshirishiga ishonchim komil.

Foydalangan adabiyotlar:

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ta’lim va raqamli texnologiyalarni rivojlantirishga oid qaror va farmonlari.

2.Axmedov A., Karimov B. Axborot texnologiyalari asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi nashriyoti.

3.Saidov S. Informatika va axborot texnologiyalari. – Toshkent: Fan va texnologiya.

4.Mamarasulov A. Raqamli ta’lim va zamonaviy pedagogik texnologiyalar. – Toshkent.

5.www.ziyonet.uz

6.www.edu.uz

7.www.wikipedia.org